

## MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Andijon davlat universiteti magistri  
Sadridinova Madina Davronbek qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf she'rlarini o'qitishda zamanoviy metodlardan foydalanish va mакtab o'quvchilariga shoirning she'rlarini o'qitishda yangi interfaol usullardan foydalangan xolda bolalarga shoirning she'rlarini qanday o'qitish xaqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Metodos, empiric, metodologiya, F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits, Binar uslubida

**Abstract:** This article talks about the use of modern methods in teaching the poet Muhammad Yusuf's poems and how to teach the poet's poems to children using new interactive methods in teaching the poet's poems to schoolchildren.

**Key words:** Metodos, empiric, methodology, F. Bacon, G. Galileo, R. Descartes, G. Leibniz, Binary style

Muhammad Yusufning she'rlari maktab o'quvchilaridan tortib universitet talabalariga qadar kerak bo'ladigan darsliklarning barchasiga kiritilgani sir emas, albatta. Darsliklar o'z ortidan bevosita metodlarni boshlab keladi. Metod o'zi nima?

Metod (yunoncha "metodos" – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'lilot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usulidir.

Metodning kelib chiqish tarixi kishilarning amaliy faoliyatiga borib taqaladi. Biror ishni bajarish metodini egallagan kishi shu ishni boshqalarga nisbatan oson, tez va soz bajara oladi. Metodni egallamagan inson esa bu ishni bajarish uchun ko'p vaqt va kuch sarflaydi. Metod o'z mazmuni jihatidan amaliy yoki nazariy shaklda bo'lishi mumkin. Insonning amaliy faoliyatiga oid metodlar ham voqelikka xos bo'lgan qonuniyatlarni anglab yetish, bilib olishga borib taqaladi. Metodlar haqidagi ta'lilot fanda metodologiya deb ataladi. Inson dastlab atrofdagi narsa va hodisalarini kuzatish, ularni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish, farq qilish asosida voqelik haqida bilimlarini to'plab borgan. Voqelik haqidagi fanlar rivojlanishi bilan fanlarda qo'llaniladigan yo'l-yo'riqlar, metodlar ham takomillashib borgan. Fanning amaliy (empirik) va nazariy metodlari vujudga keldi.

Fan metodlarining asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati metod funksiyasiga egadir. Metod o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan metod bilan ilmiy nazariya funksiyasiga ko‘ra, bir-biridan farq qiluvchi ilmiy amal hisoblanadi.

Falsafa va fanlar tarixida ilmiy metodning mohiyatini tadqiq etish, yangi-yangi metodlarni kashf etish alohida ahamiyatga egadir. Har qanday bu ilmiy kashfiyotlarga nisbatan olimning biror yangilikni kashf qilishda qo‘llagan ilmiy metodi ko‘proq ahamiyatga egadir, chunki boshqa kashfiyotchilar ham shu olim qo‘llagan ilmiy metodga tayanib ko‘plab kashfiyotlarni ochishi mumkin.

Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo‘linadi: yalpi umumiy bilish metodlari – hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qo‘llaniladigan umumiy va universal metodlar – metodologiya; umumiy bilish metodlari – bir qancha yoki barcha fanlarda qo‘llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o‘tish chegarasi)da qo‘llaniladigan bilish metodlari; xususiy yoki maxsus metodlar – ayrim fan doirasida qo‘llaniladigan bilish metodlari.

O‘rta Osiyo olimlaridan Forobiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa fan metodlarini rivojlantirganlar. Xorazmiy olimlarni uchga bo‘lib, ularning bir qismi ilmiy kashfiyotlarni ochishda qullaniladigan yo‘l-yo‘riq va usullarni ishlab chiqib boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarini osonlashtiradi, deb yozganida, aynan shu metodlarni ishlab chiquvchi olimlarni nazarda tutgan.

Yaqin davr Yevropa faylasuf olimlari ham metod taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shishdi. F. Bekon, G. Galiley, R. Dekart, G. Leybnits singari faylasuflar metodlar haqida maxsus asarlar ham yozishdi.

Hozirgi zamon fanlarida ko‘plab umumiy, xususiy ilmiy metodlar qo‘llaniladi. Ayniqsa, keyingi asrda modellashtirish va matematik metodlarning yangi shakllari rivojlandi, kibernetik modellashtirish va kompyuter modellashtirish metodlari jamiyatning qariyb barcha sohalarida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Zamonaviy ilmiy metodlar tadqiqotchilarga dunyo sir-asrorlarini ochishda yordam bermoqda.

Aytib o’tganimizdek, metodlarni o’rganuvchi fan metodologiya deb ataladi. Shu o‘rinda metodologiya haqida ham biroz ma’lumot berib o‘tish maqsadga muvofiq bo’ladi. Metodologiya (metod va ...logiya so‘zlaridan) – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta’limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta’limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi, deb ham ta’riflanadi. Metodologiya metodlarga va umuman voqelikka qanday yondashish yo‘lini o‘rgatadi. Voqelikning muayyan qismini, biror jihatini, rivojlanishining ayrim holatini o’rgatuvchi metodologiyaga metafizikani, voqelikning chiziqli rivojlanish, o‘zgarish jarayonini va uni tashkil etuvchi elementlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorliklarni aks ettiruvchi metodologiyaga dialektikani, voqelikda ro‘y beruvchi keskin, halokatli o‘zgarishlar, nochiziqli rivojlanish jarayonlarini o‘rganishda qo‘llaniladigan metodologiyaga sinergetika misol sifatida ko‘rsatish mumkin.

Metodologiyaga ilmiy bilishning, voqelikni anglash va o'zgartirishning algoritmi sifatida ham qarash mumkin. Masalan, Yunonistonda geometriya yer maydonlarini o'lchashda normativ yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilgan va geometriya ilmini falsafani o'rganish uchun muhim metodologiya deb bilishgan. Platon maqbarasiga kiraverishdagi eshikka "kimki geometriyani bilmasa, bizning oldimizga kirmasin" deb yozib qo'yilgan ekan. Falsafada esa olamni anglashda Geraklitning logosk metodologiya vazifasini o'tagan. Metodologiya taraqqiyotiga Sokrat, Aristotel jiddiy hissa qo'shishgan. Forobiy sharqona fikrlash uslubi nuqtai nazaridan Aristotel asarlarini sharxlaydi. Bunday sharxlar Aristotel merosini o'rganishda metodologiya bo'lib kelgan. Ibn Sino o'zining xotiralarida Aristotelning "Metafizika" asarini 40 marotaba o'qib chiqsa ham hech narsa tushuna olmaganligini, bu asarning mazmuniga Forobiyning sharxlarini o'qigandan so'nggina tushunib yetganligini yozib qoldirgan. Metodologiya haqida F. Bekon, R. Dekart, J. Lokk, G. Galiley va boshqa yevropalik olimlar maxsus kitoblar yozishgan. Shuningdek, metodologiya rivojiga Kant, Fixte, Shelling, Gegel jiddiy hissa qo'shishgan. Gegel dialektik metodologiyaning asoslarini ishlab chikdi. 20-asrda sinergetik, strukturalistik va germenevtik metodologiyalar falsafada eng obro'li falsafiy metodologiyalar sifatida nom qozondi, sistemaviy va kompleks yondashish metodologiyalari esa insonning barcha hayotiy jarayonlarida keng qo'llanilmoqda.

Bugungi kunda sinergetika metodologiyasi olamning chigal muammolarini tadqiq etishda, halokatli portlashlar, nochiziqli o'zgarish jarayonlarining mohi-yatini tushunib yetishda, olamning vujudga kelishini ilmiy asoslashda kuchli evristik bilish quroli vazifasini o'tamoqda.

Quyida Muhammad Yusuf she'rlarini Binar uslubida o'quvchilarga o'rgatish metodini ko'rib o'tamiz. Mashhur so'z san'atkori Muhammad Yusuf ijodida Vatan tuyg'usi alohida ahamiyat kasb etadi. Deyarli, shoirning har ikki she'ridan biri vatan haqida. Menimcha, shoir kabi vatan madhini ko'p va ho'p hech kim yozmadni. Vatanini sevganlarni yurak xumori, she'rlarining tumorini, ya'na "Ulug'imsan, Vatanim" she'ri haqida aytib o'tsak. Maktab darsligida (8-sinfda 3 soat) berilgan ushbu she'rni tarix, ona tili, rus tili, ingliz tili, geografiya fanlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etish mumkin. Quyida Binar ma'ruza texnologiyasidan foydalanish uslubiyatini keltiramiz.

Geografiya: 8-sinf. Mavzu: O'zbekistonning geografik o'rni. Binar ma'ruzasidan foydalanamiz. Binar ma'ruza. Binar so'zi lotinchadan olingan bo'lib, qo'sh, ikki degan ma'noda qo'llaniladi. Bunday mashg'ulotning olib borilishi ikki vakil: o'qituvchi va metodist; o'qituvchi va o'quvchi; taklif etilgan mutaxassis va o'qituvchi; o'qituvchi va tyutor (maslahatchi) o'rtasidagi interfaol suhbat, bahs-munozara va axborotlar almashinuvini namoyon qiladi. Jarayonni bunday tashkillashtirishdan ko'zlangan asosiy maqsad yangi o'quv ma'lumotlari va axborotlarini ikki mutaxassis yoki

ishtirokchi nuqtai-nazarlarini taqqoslash orqali yoritib berishdan iborat. Pedagogik maqsadning amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish o‘qituvchi va talaba (yoki o‘quvchi)ning hamkorlikdagi faoliyati, ular qo‘yan maqsad, tanlagan mavzu, uslub, shakl, vositaga, ya’ni texnologiyaga bog‘liq. O‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya – bu aniq, ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo‘lib, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Adabiyot: Ta’kidlash joizki, mazkur she’r o‘z nomi bilan Vatan haqidagi qo‘shiq, sara asar. Uning har bir misra-yu bandi hikmat, alam, izard, yanglig‘ yangraydi. Xalqi uchun xizmat qilayotgan bo‘lsada, xizmatidan ko‘ngli to‘limgan shoir - Men dunyonim nima qildim deya ohista qo‘zg‘alon ko‘taradi:\

Men dunyonim nima qildim,  
O‘zing yorug‘ jahonim,  
O‘zing hoqon, O‘zing sulton,  
Sen taxti Sulaymonim.  
Yolg‘izim, Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O‘zing mening ulug‘lardan  
Ulug‘imsan Vatanim.

Professor Anvar Hojiahmedov shunday yozadi: talmeh (nazar solmoq) she’r yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, adabiy asarlar yoki maqollarga ishora qilmoq san’atidir.<sup>1</sup> Qorong‘u kechada yashin chaqnaganda atrof yorishib, ilgari ko‘rinmay turgan narsalar ko‘rinib ketganday, biror mashhur shaxs yoxud voqeaga ishora, aytmoqchi bo‘lgan fikr yoki manzaraning aniqroq va jonliroq chiqishiga yordam beradi. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf ijodiga nazar solsak, birgina qo‘shiqqa aylanib ketgan “Ulug‘imsan Vatanim” she’rining har bir bandida, aniqrog‘i, 14 misrada talmeh san’atidan unumli foydalangan. Avvalo, shoir xalqimizning tarixida mashhur bo‘lgan, nomi afsonalarga aylangan shaxslar bilan bog‘liq fikrlarini badiiy ifodalaydi. Asarlarda mashhur insonlar ismini tilga olish orqali o‘quvchi ongida-xiralashib turgan fikrni chaqmoq chaqqanday yorqinlashtirish, aniq tasvirlar orqali ong, shuurga muhrlashdan iboratdir.

Adabiyot: Shoir nazarida, Yassaviy, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur, Mashrab bir insonning ismigina emas, balki xalq, millatning ramzidir. Mumtoz adabiyotimiz vakillarining ibratli hayoti yoki Mashrabning ayanchli qismati o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalaniib, kitobxonga estetik ta’sir qiladi. Boborahim Mashrab o‘zbek mumtoz she’riyatiga yangi ruh va o‘ziga xos ijodiy nafas olib kirgan, Qalandarlikning

<sup>1</sup> Hojiahmedov.A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999.

(so‘fizimning bir oqimi) yirik vakili. Mashrab yaratgan misralararo xazinani qancha ko‘p o‘qisa o‘shancha teran anglash, shaxs va jamiyat, odam, olam, Haq va bandda munosabatlarini to‘g‘ri mushohada aylash darajasiga yetish ko‘zda tutiladi. Hoja Ahmad Yassaviyning dunyoga kelishi, - Devoni hikmat yoki boshqa asarlarining yaratilishi bilan turkiy xalqlar o‘zining mustaqil tariqat kitobiga, tom ma’nosи ilа Ma’rifat, Haqiqat, Ruhoniyat qomusiga ega bo‘ldi. Avlodlar uchun Ahmad Yassaviy hayoti va ijodi ulug‘ bir kitob, hikmatlar xazinasidir.

Sen Xo‘jandsan,  
Chingizlarga  
Darbozasin ochmagan,  
Temurmalik orqasidan  
Sirdaryoga sakragan.  
Muqannasan qorachig‘i  
Olovzlalarga sachragan,  
Shiroqlarni ko‘rgan cho‘pon –  
Cho‘lig‘imsan Vatanim!

Yuqoridagi satrlarda o‘z Vatanini har narsadan baland qo‘yan, zarracha bo‘lsin, ruhiy hurligiga malolat cho‘ktirmaydigan, irodasi mustahkam, yuksak fazilat egasi, xudbinlikdan yuz o‘girgan, vatanparvar qahramonlar timsoli gavdalantiriladi. Shoir xalq tarixini, uning eng og‘ir va eng -qora kunlarini eslatish orqali ham kitobxonni Vatanni sevishga o‘rgatadi.

Geografiya: Sirdaryo O‘rtal Osiyodagi eng uzun va Amudaryodan keyingi eng sersuv daryo hisoblanadi. O‘zbekistonligi eng katta ikki daryolaridan biri. Sirdaryo – Uzunligi 2212 km (Norin daryosi bilan birgalikda) 3019 km. Daryo havzasining maydoni taxminan 162000 km<sup>2</sup>. Uning asosiy suv hosil bo‘ladigan qismi esa 219000 km<sup>2</sup>. Farg‘ona vodiysining sharqiy chekkasida baliqchi qishlog‘i yonida Norin daryosi bilan Qoradaryo qo‘silgan joydan Sirdaryo deb ataladi. O‘zbekistonning Andijon, Namangan, Farg‘ona, Toshkent, Sirdaryo viloyati, Tojikistonning So‘g‘d viloyati va Qozog‘istonning Janubiy Qozog‘iston va Qizilo‘rda viloyatlari bo‘ylab, avval, g‘arb, janubi g‘arb tomon so‘ngra esa shimol, shimoli g‘arbga oqib borib, Orol dengiziga quyiladi.<sup>2</sup>

Kim Qashqarni qildi makon,  
Kim Enasoy tomonda,  
Jaloliddin – Kurdistonda,

<sup>2</sup> O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000-2005-y.

Boburing – Hindistonda.

Adabiyot: Vatanni shonli tarixi bilan bog‘liq manzil, makonlar, joy nomlari, tarixiy shaharlar, taqdirlar o‘quvchi kitobxonlarni befarq qoldirmaydi. Vataniga qaytish buyuk armonga aylangan mardlik va jasorat, er yigit timsoli Jaloliddin Manguberdi, buyuk Boburiylar imperiyasi asoschisi, dilbar shaxs, shoh va shoir Bobur nomini keltirish orqali vatanni qadriga yetish, uni ardoqlashga chorlaydi.

Geografiya: Koshg‘ar (Xitoy manbalarida Kashi, Kashiger) - Xitoy xalq respublikasining g‘arbiy qismidagi shahar. Qadimda Buyuk Ipak yo‘li dagi chorraha va yirik savdo markazi bo‘lib kelgan. Qashqar – Qizilsuv - Xitoyning g‘arbiy qismidagi daryo boshlanish qismi Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarida. O‘zbekiston 765 km (685 km Xitoyda), havzasining maydoni 90.8 ming km. Bundan tashqari, vodiy bilan bog‘liq misralarga tarixiy geografiya tomondan yondashamiz: Qo‘qon Farg‘ona viloyatining g‘arbida, transport yo‘llari ustida joylashgan. Undan Toshkent, Namangan va Farg‘ona tomonlarga temiryo‘l va avtomobil yo‘llari o‘tadi. Shahar uzoq vaqt Qo‘qon xonligi poytaxti bo‘lgan. U viloyatdagi asosiy madaniyat markazlaridan biridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shoir faoliyatida, uning yaratgan asarlarida, she’rlarida juda katta ma’rifiy qudrat bor. Talmeh san’ati asosidagi yaratilgan har bir baytda o‘zbeklar tarixi, geografiyasini jamlay olgan va o‘quvchini tarix bilan yuzlashtirgan. Shoirni o‘quvchiga yuqtiradigan eng oliv fazilati esa tarix, geografiya, adabiyot, o‘zbek tili, psixologiya va boshqa fanlarni ham bilimdoni ekanligi. Shoir ma’rifiy qudratining kitobxонни har jihatdan barkamol inson bo‘lib yetishishida, Vatan muhabbatи yurakda mustahkam o‘rin olishiga munosib hissa bo‘ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Muhammad Yusuf “Xalq bo‘l elim” kitobi.
- 2.Muhammad Yusuf “Shoir sevgisi” kitobi.
- 3.Muhammad Yusuf “She’riy to’plamlari” kitobi.
- 4.Muhammad Yusuf “Sara she’rlari” kitobi.
- 5.Hojiahmedov.A. Mumtoz badiiyat malohati. – T.: Sharq, 1999
- 6.Jo‘raboyev O. Qoqon asrlar silsilasida. – Qo‘qon, 2004.
- 7.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-jild. – Toshkent, 2000-2005-y.